



МУҒАЛЛИМ ҲӘМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ

Илимий-методикалық журнал

№ 3/1 2024



гуманитарные науки
естественные науки
технические науки





МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2024

3/1-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

3/1-сан 2024

март

Шөлкемлестириүшилдер:

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендіриү Министрлигі,
ФЗПИИ Қарақалпақстан филиалы**

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ
Сапардурды АБАЕВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ
Хайрула АЛЯМИНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ
Интизар АБДИРИМОВА
Тұлқин АЛЛАЁРОВ
Мариғжон АХМЕДОВ
Умида БАХАДИРОВА
Фарҳад БАБАШЕВ
Ботир БОЙМЕТОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Шахло БОТИРОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Аскар ДЖУМАШЕВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шымкент,
Қазақстан)
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Холбай ИБРАГИМОВ
Шохида ИСТАМОВА
Умида ИБРАГИМОВА
Лола ИСРОИЛОВА
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз,
Қазақстан)
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шымкент,
Қазақстан)
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Аскарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Захия НАРИМБЕТОВА

Хұшбоқ НОРБҮТАЕВ
Улфат МАҲКАМОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Сафо МАТЧОН
Шукурилло МАРДОНОВ
Камаладин МАТЯКУБОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Раъно ОРИПОВА
Бахтиёр РАХИМОВ
Фурқат РАЖАБОВ
Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Дилшода САПАРБАЕВА
Феруза САПАЕВА
Зайниддин САНАҚУЛОВ
Қаххор ТУРСУНОВ
Амина ТЕМИРБЕКОВА
Нурзода ТОШЕВА
Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Воҳид КАРАЕВ
Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
Гавхар ЭШЧАНОВА
Қонысбай ЮСУПОВ



МАЗМУНЫ

ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Тилемуратова Г.Т. Көракалпок адабиётин ўқитишида халк оғзаки ижодидадан фойдаланиши усуллари	9
Aytbayev D.T. Ergash gapli qo'shma gaplarda diktum va modusning ifodalanishi	13
Mamarizayeva F.Z. Tarjimada badiiy asar uslubini saqlashning turli strategiyalari va bu jarayonning o'ziga xosligi (S.Ahmadning "Jimjitlik" asari misolida)	17
Qurbanova D.A. Neyrolingvistikaning fan sifatidagi ahamiyati	22
Odiljonova K.A. Leksikologiya hamda uni o'qitishga doir o'quv materiallari mazmuni hamda o'quvchilarda leksik kompetentlikni shakllantirish hamda so'zdan foydalana olishning mayjud ahvoli	27
Sultonkulov O.J. Zamonaliv tilshunoslikda "Vaqt" konseptini pragmatik jihatdan o'rganish masalalari	34
Еркибаева Г.Г., Тұрыналиева Г.Б., Абдикаримов А. Фразеологические словари и фразеологическая компетенция	39
Otabayev M. N. The role of games in teaching English	45
Majidova G. Strategies for developing students' critical thinking skills in teaching foreign languages	49

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Turumbetova A. Oqiw sabaqlarinan tisqari dógerk jumislarin ótkeriw metodikasi	54
Temirbekova A.O., Saribaeva B. Jähán tálím sistemasında - tálím	63
Тулишов Ф. Талабаларда креативликни баҳолашнинг ўзига хос хусусиятлари	67
Ismadiyarova U.A. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya mexanizmlarini etnopsixologik qadriyatlar asosida takomillashtirish	73
Юсупов С. С. Таълим-тарбия тизимини бошқарувида раҳбарлик ва ташкилотчилик фаолиятининг педагогик асослари	80
Абдурахимов Қ.А. Тафаккур жараёнига айтиб туришларнинг таъсири ва роли	89
Рўзиматов Э.Й., Рўзиматов Э.Э. Замонавий ўқитувчи-келажак бунёдкори	99
Turdiqulova N.T. Kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonida xorijiy tajribalardan foydalanishning samaradorligi	103
Хамрокулова Ш.Э. Даволаш педагогикасининг фан сифатида ривожланиши	113
Содиков У., Жўраев А. Масалаларни ечишида ўқувчиларда математик моделлаштириш кўйникларини шакллантириш	120
Абдуллаева Г.А. Маънавий тарбияни мидорий хусусиятлари	125
Хайдарова Х.Р. Ёшлардаги ахборот-виртуал саводхонликни ривожлантириша рақамли медианинг роли	130
Хамрокулова Ш.Э. Экологик тарбия механизmlarini takomillashтиришнинг методологик асослари	135
Худайназаров Т.А. Талабалар ўкув фаолияти самарадорлигини таъминлашда рағbat ва жазо феноменларининг роли	141
Ахрарова З.Б. Маънавий - ахлоқий тарбия жараёнларида Маҳмудхўжа Бехбудийнинг ижтимоий – педагогик меросидан фойдаланиш	148
Jumabaev A.D. Axloqiy ta'limdi qo'llaniladigan usullar va texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari	154
Xushbaqov D. Q., Sodiqov U. J. Talabalarda mental dunyoqarashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	163
Sultansaidova M.A. Xorijiy tajribalar asosida bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish	170
Абдурахимова Да.А. Интегратив ёндашув асосида бўлажак офицерларнинг ахлоқий-рухий, жанговар компетентлигини ривожлантириша маънавий маданиятнинг роли	175
Mirzayev Sh.T. Harbiy ta'l'im fakultetlari talabalarining innovatsion fikrflashlarini rivojlantirish omillari	182



Gimazutdinov R.G. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy rivojlanish darajasiga qarab badminton o'yini texnikasini o'zlashtirish xususiyatlari	457
Janbayeva M.S. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mobilligini shakllantirish metodikasi	462
Ibadullayev Q.M., Saparbayeva X. E. Iqtidorli bolalar bilan ishlashda me'yoriy vaziyat	467
Abdunazarova Z.X. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda ekologik tafakkurni takomillashtirish	474
Abdulhamidova M., Xaydarova M. Boshlang'ich sinf oqituvchilarining pedagogik mahoratini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish	480
Ziyamova M.J. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida inkluyuziv ta'lif jarayonini tashkil qilishda pedagogik hamkorlik	488
Yuldasheva U.M. Bo'lajak boshlang'ich sinf ingliz tili o'qituvchisining zamonaivi texnologiyalar yordamida pedagogik-metodik kompitensiyasini shakllantirish	493
Sodiqov M.A. Kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tilini o'rgatish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	498
Umnova M.Q. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni o'quvchilarda bilishga qiziqishini rivojlantirish tamoyillari	509
Saidaxmadova N.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar ijodkorligini oshirish yo'llari	514
Suvanova S. B. Maktabgacha yoshdag'i bolalarning aqliy tafakkurini rivojlantirishda milliy xalq o'yinlari texnologiyalaridan foydalanish	521
Joldasbayev P.M., Qutlimurodova O.P. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lif yoshdag'i bolalarning chaqqonlik qobiliyatini rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari	528
Turayev A.M. Masofaviy ta'lif sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari	533
Абдуллахонова Д.Р., Хошимова Г.З. Развитие творческой деятельности дошкольников с помощью пяти центров	542
Ядгарова А.Б. Методы изотерапии в образовании и социальной поддержке детей ОВЗ шестого года жизни в Узбекистане	548
Чаброва Т.Л. Роль родителей в формировании духовно - эстетических качеств детей дошкольного возраста при обучении им навыкам рисования	553
Насирова З.Х. Развитие речи детей дошкольного возраста	560
Эгамбердиева Д.Т. Применение метода сказкотерапии в воспитание и развитие детей дошкольного возраста	565
Haqqiyeva F.O. Technologies for developing management competence of private partnership-based preschool education organization leaders	571
Mirzayev O. X. The history of the formation of entrepreneurial skills among preschoolers (using the example of Central Asia)	574
Sadikova Sh.A., Sultanmuratova Yu.O. Foreign experience in the formation of safety management in preschool educational organizations	579
Umnov D.G. Theoretical foundations of the development of consumer culture in preschool children	583
Kabulova Z. The history of pedagogy as a teaching subject	587

ТАСВИРИЙ САЪНАТ

Raxmutova N.A. Ritmik gimnastika musiqiy ritmik tarbiya vositasi sifatida	592
--	-----

СОЦИАЛЛЫҚ ПЕДАГОГИКА

Бабашев Ф.А. «Осиё мўжизаси» феноменида PR-фаолиятнинг тутган ўрни	595
---	-----

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲӘМ СПОРТ

Kadirimbetov R.N. Para qılıshpazlıq sportı áyeller shpaga (a) baǵdarı boyınsha 1-3- para aziya oyınları championlardıń ortasha jası hámde sport nátiyeleriniń analizi	602
--	-----



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI JISMONIY RIVOJLANISH DARAJASIGA QARAB BADMINTON O'YINI TEXNIKASINI O'ZLASHTIRISH XUSUSIYATLARI

Gimazutdinov R.G.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

"Maktabgacha ta 'lim" fakulteti "Bolalar sporti" kafedrasi katta o'qituvchisi.

Tayanch so'zlar: jismoniy tarbiya, sport, shaxs, badminton, vosita, jismoniy faollik, qoida, aqliy qobiliyat, millat salomatligi, ko'rsatkich, jismoniy funksiya.

Ключевые слова: физическое воспитание, спорт, человек, бадминтон, средства, двигательная активность, правило, умственная работоспособность, здоровье нации, показатель, двигательная функция.

Key words: physical education, sport, person, badminton, means, motor activity, rule, mental performance, health of the nation, indicator, motor function.

Har bir davlat o'z kelajak avlodini sog'lom, mehnatga layoqatli, Vatanni himoya qila olishga qodir, jamiyatning faol a'zosi bo'lishini ko'zda tutadi. Ma'lumki, insonlar o'z imkoniyatidan kelib chiqib, muayyan faoliyat bilan shug'ullanadi. Jismoniy tarbiya hamma uchun foydali va qiziqarli bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan badminton o'yini tehnikasini va qoidalari o'rganish jarayonida jismoniy tarbiya o'qituvchisi yoki murabbiy bajariladigan harakatlarning mutanosibligi, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olishi zarur.

Antropometrik ko'rsatkichlar va o'pkaning tiriklik sig'imiga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'g'il va qiz bolalarida statistik jihatdan sezilarli farqlar mayjud emas, bu esa sinflarni jins bo'yicha farqlanmasdan tashkiliy va uslubiy jihatdan qurish imkonini beradi. Bolalarning tana massasi va tana massasi indeksi ko'rsatkichlari jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari bilan bir xil darajada aniq statistik korrelyatsiyaga ega. Bu jismoniy va hissiy intensivlikning oshishi bilan ajralib turadigan sport turlaridan foydalinishga asoslangan usullar yordamida tana massasini tuzatish imkoniyatini nazarda tutadi.



Boshlang‘ich sinf o’quvchilari kattalarga taqlid qilishni yaxshi ko’radilar, shuning uchun namoyish va imitatсиya harakatlari tog‘ri ko’rsatilishi kerak. Og‘zaki tushuntirishni soda va tassavurni paydo qila oladigan ixcham tarza tuzilishi kerak. Bolalar monoton ishlardan tezda charchashadi, shuning uchun darslarning tuzilishini va mazmunini ba’zida o’zgartirish kerak. Yuqori samaradorlikni ta’minalash uchun mashqlar orasidagi tanaffuslar tez-tez, lekin qisqa bo’lishi kerak, chunki uzoq dam olish mashqlarga qiziqishni kamaytiradi va mashg‘ulot natijalariga salbiy ta’sir qiladi va bu yoshdagi bolalar organizmi tezda qayta tiklanishini inobatga olish kerak.

Badmintonda ishlatajigan harakatlar elementar bo‘lib, ular yugurish, uloqtirish, sakrash kabi mashqlarga asoslanadi. Ushbu sport turi nafaqat jismoniy rivojlantirish omili, balki bolalarning aqliy zo‘riqishlarini ham bartaraf etuvchi faol dam olish vositasi deyish mumkin.

Badminton sporti o’quvchi shaxsini har tomonlama rivojlanishiga ta’sir ko’rsatadi, ayniqsa jismoniy sifatlarni mustahkamlaydi, harakat ko‘nikmalarini kengaytiradi, irodaviy hissiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Eng muhim, o‘zining sog‘lig‘I uchun qayg‘urishni o‘rgatadi, rivojlantiradi, intellektual qobiliyatni ham rivojlanadiradi.

Boshlang‘ich sinf davri badminton bilan shug‘ullanishni boshlash uchun eng maqbul yosh hisoblanadi, chunki bu davr sport turlarida muhim bo‘lgan asosiy jismoniy fazilatlar rivojlanish uchun yangi harakatlar tez o’zlashtiriladi. Bu yoshda maxsus mahoratining asosi shakllanadi, texnik tayyorgarlik poydevori qo‘yiladi.

Kichik maktab yoshi organizmning intensiv o’sishi va rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Orqa miyadagi harakatchanlik, muskullarning eguluvchanligi murabbiyga o’zlashtirishning barcha bosqichlarida badmintonda talab qilinadigan moslashuvchanlikni maqsadli shakllantirish lozimligini taqozo etadi. Kuch, harakatchanlik, asabiy jarayonlardagi bosiqlik, vazminlik bu yoshda sezilarli darajada rivojlanadi. Bu yoshda shaxs sifatida o‘ziga bo‘lgan qiziqish rivojiana boshlaydi, o‘z harakatlarini, qobiliyatlarini baholashga ehtiyoj paydo bo‘ladi va birlamchi fikrlash qobiliyatları shakllanadi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi o’quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajalarini baholash asosida mashg‘ulot tartibini o’zgartirish yoki takomillashtirishning samarali yo‘llarini aniqlashi maqsadga muvofiq.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi o’quvchilarning badminton sportiga jalb etganda ularning qiziqishi, imkonyatlarini inobatga olgan holda “Badminton” to‘garagini tashkil etishi lozim. To‘garak jarayonida yuqorida keltirilgan omillarga tayanishi mashg‘ulotni sifatlari tashkil etishni ta’minalaydi. Badminton



to‘garagidagi mashg‘ulotlar shunday olib borilishi kerakki, unda bolaning jismoniy, aqliy, irodaviy salohiyatining uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydigan va shu bilan birga optimal yuk darajasini tashkil etilishini ta’minlashi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kattalarga qaraganda atrof-muhit omillariga haddan tashqari qiziquvchan, nisbatan sezgir bo‘lib, jismoniy ortiqcha yuklamalar ularga ta’sir ko‘rsatadi.

Mashg‘ulot jarayonida yosh sportchilarga individual yondashish talab qilinadi, ularning jismoniy rivojlanishi, jinsi va tayyorgarligini hisobga olgan holda mashqlarni tanlash zarur. Murakkab mashqlarni nisbatan sodda, qiziqarli va rang-barang, ammo muhim mashqlar bilan uyg‘unlashtirish kerak.

Badminton “raketka bilan shaxmat” deb nomlanishi ajablanarli emas. Gap shundaki, racketka nafaqat urishi, balki raqibning harakatlarini bashorat qilishi, unga racketka bilan zarba bera olmaydigan shunday parvoz trayektoriyasi haqida ham o‘ylashni taqozo etadi. Badminton o‘yini juda ko‘p afzalliklarga ega. Shulardan biri ota-onalar uchun qimmatbaho sport asbob-uskunalarini xarid qilish talab etilmaydi, oddiy foydali tomonlari shundaki, badminton o‘ynash uchun faqat bir juft racketka va 2- 3 dona volan va qulay sport kiyimi bo‘lsa kifoya.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari badminton o‘yiniga qiziqtirishning asosiy pedagogik jihatlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilarni tashkil qiladi:

- kichik yoshdagi o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi uchun ajoyib vositadir. O‘yin maydonchasidagi turli harakatlar bola tanasining jismoniy holatini yaxshilashga yordam beradi;
- badminton sport turi xarakterni shakllantiradi. Har safar ushbu o‘yinni o‘ynab, bola tengdoshlari bilan raqobatlashadi, g‘alaba qozonishni va yutqazishni o‘rganadi;
- bola mag‘lubiyatlardan xulosa chiqarishni, asosiy natijaga erishish muvaffaqiyatli o‘yinchilarning uchun o‘yinni puxta o‘rganadi;
- badminton o‘yinini muntazam o‘ynash ko‘rish qobiliyatini yaxshilaydi.

Doimiy ravishda kompyuter va telefon ekranini oldida vaqt o‘tkazadigan bolalar uchun ushbu sport turi ayniqsa samarali faoliyat sanaladi. Mashg‘ulotlarda bola doimo o‘z nigohini uzoqdagi obyektdan (raqib tomonidagi volanga) yaqin obyektga (volanga racketka bilan zarba) o‘zgartiradi.

Shuningdek, badminton o‘yini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dunyo-qarashni kengaytiradi. O‘yin davomida psixik jarayonlar (diqqat, sezgi, tasavvur, irodaviy sifatlar, tafakkur, idrok) rivojlanadi.

Bolalar sport bilan shug‘ullanishning boshidanoq doimo tasodifga, ilhomga, katta jismoniy kuchga tayanib bo‘lmashagini tushunishi kerak, chunki ular



yuqori texnik tayyorgarlikning o‘rnini bosa olmaydi va badmintondagи tavakkal o‘yin kamdan-kam hollarda muvaffaqiyatga olib keladi.

Harakatning namoyon bo‘lishi va yangi mashqning tasavvur orqali bajarilishi jismoniy va psixik jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi bilan belgilanadi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga badminton o‘yini harakatlarini to‘g‘ri bajarishga yo‘naltirishi lozim. Asta-sekin o‘quvchilar ularning bir nechtasini o‘zlashtirib, barcha texnik usullarni egallab oladi. Muhimi shundaki agar miya harakatning ma’nosini tushunsa, nafaqat jismoniy fazilatlar, balki diqqatni jamlash ham o‘rgatiladi. Mashq qanchalik qiyin bo‘lsa, o‘rganish jarayonining boshida uni amalga oshirishni soddallashtirish va yengillashtirish talab qilinadi. Ko‘pgina hollarda badminton bilan shug‘ullanishga ishtiyoqi bor bolalar 5-6 mashg‘ulotda turli mashqlarni bajarishni o‘zlashtiradilar, ya’ni ular boshlang‘ich mahoratga ega bo‘lishadi. Harakat ko‘nikmasi mustahkamlik, onglilik, harakatchanlik va variativlik bilan tavsiflanadi. Shunga qaramay, texnikani amaliy o‘zlashtirish uchun asosiy narsa o‘rganilgan mashqni ko‘p marotaba takrorlash usulidir. Harakatlarni o‘zlashtirish o‘quvchilarni jismoniy va ruhiy tayyorgarligi darajasiga bog‘liq. Badminton o‘ynashni endi boshlaysotgan bolalarda chidamlilik fazilati sustroq bo‘ladi, shuning uchun ular uzoq vaqt davomida mashq qilishni istamaydi. Maqsadli texnik harakatlarni bajarish orqali o‘quvchilarda ko‘nikmalar mustahkamlanadi. Raketa bilan zarbalarini (imitasiya) taqlid qilish kuniga 2-3 marta, shu jumladan uy vazifasi sifatida – mustaqil ravishda amalga oshirilishi kerak. Harakat yuklamasi kam bo‘lgan mashg‘ulotlar uzoq davom etadigan mashg‘ulotlarga qaraganda texnikani yaxshilash va barqarorlashtirishda samarali bo‘ladi. Badminton sporti mashg‘uloti ruhiy charchoqni oldini oladi. Mustaqil mashq qilish uchun kuniga 2-3 marta bir necha daqiqa kifoya qiladi. Har bir o‘rgangan harakat ko‘nikmasini takomillashtirish uchun takrorlash talab etiladi va mahoratning o‘sishi bilan ularning soni va tezligi bir necha martaga keskin oshadi.

Badminton sporti bilan shug‘ullanish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ortiqcha vazn bartaraf etiladi, harakatlar reaksiyasi yaxshilanadi, ko‘z muskullari mustahkamlanadi, tana kislородга to‘yinadi, nafas mashqlari amalga oshadi, buyrak kasalligi, yuqumli va davriy kasallikarni yengishda yordam beradi.

Fikrimizcha, boshlang‘ich sinflarning o‘quv rejasiga badminton sportini kiritilishi uzviylikni ta’minlashga ham zanjir bo‘ladi. Shu boisdan ham boshlang‘ich sinfdanoq ushbu sport turiga qiziqtirish muhim ekanligi o‘z tasdig‘ini ko‘rsatadi. Chunki, badminton sport turi yuqorida ta’kidlaganimizdek, olimpiada sport turlaridan biri sifatida tan olingan.



Adabiyotlar:

1. Григорян Э. А. Двигательная координация школьников в зависимости от возраста пола и занятий спортом / Э. А. Григорян. - Киев : Рад. шк., 2006. - 123 с.
2. Лях, В.И. Физическая культура 1-4 классы: учебник / В.И. Лях. – М.: Просвещение, 2013. -190 с.
3. Pulatov. A.A., Savatyugin O.M., Isroilov Sh. Sh. Badminton nazariyasi va uslubiyoti. (O'quv qo'llanma). – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 298 b.
4. Помыткин В.П. Книга тренера по бадминтону. Теория и практика. – М.: Первая Образцовая типография, 2012. – 344 с.
5. Savatyugin O.M., G'anieva M.Y., Suleymanova S.F. Sport pedagogik mahoratini oshirish (Badminton). O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2017.-259 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jismoniylar va fiziologik tomonidan rivojlantirishda badminton o‘yinining ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье обсуждено значение занятий бадминтоном в физическом и физиологическом развитии учащихся в начальных классах.

SUMMARY

The importance of badminton lessons in the physical and physiological development of students in the primary grades is discussed.